

## HASHAR BU HAMJIHATLIKDIR

11:00

***Qo'shtepa tumanidagi "Nurafshon" mahalla fuqarolar yig'inining "Oyimcha" qabristonida obodonlashtirish ishlari olib borilib, qabristonga hashar yo'li bilan qo'shimcha bino qurilmoqda.***

- "Nurafshon" mahallasida o'ziga xos odat bor - deydi, mahalla faoli Shuxratjon Oripov. – Mahalladagi yoshlar nuroniyalar bilan maslahatlashib har yili mahallada obodonlashtirish ishlarini olib borishadi. Yildan-yilga shakllanib kelayotgan bu odat xatto yoshlar o'rtasida o'zaro raqobatga ham aylanib ulgurgan. Bu ishning e'tiborli jihatni shundaki, tashabbuskorlarning aksariyat qismini 30-35 yoshli yigitlar tashkil etadi. Mahallamiz yoshlaridagi bu ahillikni ko'rib, hashar birdamlik va hamjihatlik ekanligiga yana bir karra amin bo'limoqdamiz.

11:00

Ayni kunlarda "Oyimcha" qabristonida 20 nafardan ziyod yoshlar qurilish ishlarini olib bormoqdalar. Qurilish harajatlari esa tashabbuskor yoshlarning o'z mablag'lari va xomiylik mablag'lari hisobidan amalga oshirilmoqda.

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#),

2022-01-28 09:51:28